

PSIXODIAGNOSTIK TADQIQOTLARNING MAQSADI VA MOHIYATI

Kamola Mahmudova

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası PhD., v.b., dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixodiagnostik tadqiqotlarning asosiy maqsadi va mohiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Psixodiagnostik tadqiqotlar shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, psixik holatlarini va xulq-atvorini aniqlash, baholash hamda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, psixologiya fanining muhim amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar orqali shaxs rivojlanishining qonuniyatlari, psixik jarayonlarning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda individual farqlar aniqlanadi.*

Maqolada psixodiagnostik tadqiqotlarning asosiy vazifalari, ularning psixologik tadqiqotlar tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, psixodiagnostik metod va metodikalarning tanlanishi, ularni qo'llash jarayonida ilmiylik, ishonchlilik, validlik va obyektivlik tamoyillariga rioya etish masalalari tahlil qilinadi. Psixodiagnostik tadqiqot natijalarining psixologik maslahat, ta'lim-tarbiya jarayoni, kasbiy yo'naltirish, kadrlarni tanlash hamda klinik amaliyotda qo'llanilishi alohida e'tibor markazida bo'ladi.

Tadqiqot davomida psixodiagnostik tadqiqotlarning nazariya va amaliyotni bog'lovchi mexanizm sifatidagi mohiyati asoslab berilib, ularning shaxs rivoji va jamiyat ehtiyojlariga mos psixologik xizmatlarni tashkil etishdagi o'rni ochib beriladi. Mazkur maqola psixologiya sohasi tadqiqotchilari, amaliyotchi psixologlar va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *psixodiagnostik tadqiqotlar, psixodiagnostika, maqsad va mohiyat, psixologik baholash, individual xususiyatlar, psixik holatlar, psixodiagnostik metodlar, ishonchlilik, validlik, obyektivlik, amaliy psixologiya.*

Psixodiagnostik tadqiqotlarning asosiy maqsadi — shaxsning psixologik xususiyatlari, individual imkoniyatlari, aqliy va emotsional jarayonlari, xulq-atvori hamda shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy asosda aniqlash va baholashdan iborat. Psixodiagnostika psixik jarayonlarning kechishi, shaxs sifatlarining shakllanishi va rivojlanish darajasini aniqlash orqali insonning individual psixologik portretini yaratishga xizmat qiladi.

Inson psixikasini obyektiv, ishonchli va aniq metodlar orqali o'rganish, natijalarni ilmiy mezonlar asosida tahlil qilish va umumlashtirilgan xulosalar chiqarishdir. Psixodiagnostika shaxsning qobiliyatlari, temperamenti, xarakter xususiyatlari,

emotsional barqarorligi, motivatsiyasi, moslashuv darajasi va ijtimoiy-psixologik qobiliyatlarini chuqur tahlil qilishni ko'zlaydi.

Psixodiagnostik tadqiqotlarda olingan ma'lumotlar o'quvchilar, talabalar, xodimlar yoki mijozlar bilan ishlash jarayonida individual yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quv faoliyatini optimallashtirish, kasbiy yo'naltirish, psixologik yordam ko'rsatish, konfliktlarni oldini olish va shaxsning rivojlanish strategiyasini belgilashga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika fan sifatida tarbiyachiga pedagogik psixologiya bo'yicha tayyor "retseptlar"ni bera olmaydi, chunki bunday ko'nikmalar bolalar bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadi. Bola xulq-atvorining motivlarini, uning hissiy va shaxsiy xususiyatlarini amaliy tahlil qilish orqali tarbiyachi zarur psixologik tajribaga ega bo'ladi. Mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiy bu borada shunday deydi: "Biz ularga shunchaki unday yoki bunday qiling deb aytmaymiz. Biz ularga: boshqarmoqchi bo'lgan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling, deymiz".

Shunga qaramay, amaliyotda ko'plab tarbiyachilar bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlarni yetarli darajada qo'llay olmaydilar. Ular, odatda, o'quvchi o'zlashtira olmayotganida yoki taraqqiyotdan chetlashish, muayyan buzilishlar sezilganda psixologik bilimlardan foydalanishga urinadilar. Bunday holatlar chegaraviy holatlar, psixik rivojlanishdagi kamchiliklar yoki shaxs aktsentuatsiyasining turli ko'rinishlari sifatida baholanishi mumkin. Ularni aniqlash esa bolalar psixologiyasi, klinik patopsixologiya va psixiatriya kabi sohalar bo'yicha chuqur bilimlarni talab etadi.

Bundan tashqari, tarbiyachi bolalar psixologiyasida uchraydigan akseleratsiya (ya'ni, tez yetilish), pedagogik qarovsizlik kabi muammolarning mohiyatini tushunib, ularning yechimi ustida ishlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarning qanday va nima sababdan yuzaga kelishini anglash uchun, avvalo, bola psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, u turli psixik holatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi psixologik diagnostika metodlarini egallashi lozim.

Shu bois, o'qituvchi bolalar bilan ishlash jarayonida psixodiagnostik tadqiqotni doimiy kuzatish, tahlil va xulosa chiqarish bilan uyg'un holda olib borishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Psixodiagnostik tadqiq qilish jarayoni ularning yosh xususiyatlari, har bir yosh davriga xos yetakchi faoliyat turi, shuningdek individual-tipologik xususiyatlarning rivojlanish darajasiga bog'liq holda o'ziga xos jihatlariga ega. Bola rivojlanishining har bir bosqichi psixodiagnostik ishlar uchun maxsus usul va metodlarni, shuningdek tadqiqotning o'ziga xos maqsad va vazifalarini talab qiladi.

Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshirish yosh psixologiyasi hamda pedagogik psixologiya doirasida amalga oshiriladi. Olingan natijalar asosan

yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bolaning psixik taraqqiyot xususiyatlarini aniqlash, shuningdek ta'lim-tarbiya dasturini to'g'ri shakllantirishda qo'llaniladi. Bu ma'lumotlar bolaning turli faoliyat va muloqot sharoitlarida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini baholashda, shaxs rivojlanishining individual xarakteristikalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Eksperimental tadqiqot natijalari oila, bog'cha, maktab yoki boshqa jamoat muassasalarida o'tkaziladigan individual va guruhiiy tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish uchun ham qo'llanadi.

O'qituvchi o'z faoliyatida bolalarning psixofiziologik masalalari bilan doimo duch keladi. Uni faqat vaqtinchalik natijalar emas (masalan, chorak oxiridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollari ham qiziqtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova Z.T., va boshqalar. Psixodiagnostika : o'quv qo'llanma. — Toshkent : 2008.
2. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Abdiyeva S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya : o'quv qo'llanma. — Toshkent : Tafakkur bo'stoni, 2011.
3. Toshimov R.Y., G'oziyev E.G'. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya : o'quv qo'llanma. — Toshkent : TDPU, 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika : o'quv-uslubiy qo'llanma. — Toshkent, 2010.
5. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. — Москва : ИЦ «ВЛАДОС», 2005.